



XALQARO TAJRIBADA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNING JAMIYATGA INTEGRATSIYASI

G'ulomova Moxinur Zohidjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Sotsiologiya yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotatssiya. Mazkur maqolada dunyoning rivojlangan mamlakatlari misolida nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyatga integratsiya qilishning zamonaviy usullari va amaliy natijalari tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat siyosati va qonunchilik asosida ishlab chiqilgan dasturlar, ijtimoiy xizmatlar va nodavlat tashkilotlarning bu boradagi roli tahlil etiladi. Maqolada xalqaro va O'zbekiston tajribasi ham solishtiriladi.

Kalit so'zlar: nogironligi bo'lgan shaxs, inklyuziya, ta'lim, diskriminatsiya, individual, reabilitatsiya, infratuzilma, jamiyat, realibilitatsiya.

Annotation. This article analyzes modern methods and practical outcomes of integrating persons with disabilities into society, using examples from developed countries around the world. It also examines the role of government policies, legislation-based programs, social services, and non-governmental organizations in this process. Additionally, the article compares international experience with that of Uzbekistan.

Keywords: person with disabilities, inclusion, education, discrimination, individual, rehabilitation, infrastructure, society, rehabilitation.

KIRISH. Insoniyat taraqqiyotining bugungi bosqichi jamiyatning har bir a'zosi, uning jismoniy holatidan qat'i nazar, teng imkoniyatlarga ega bo'lishini taqozo etmoqda. Xalqaro hamjamiyatda nogironligi bo'lgan shaxslar masalasi endilikda faqat "shafqat va muruvvat" doirasidan chiqib, "inklyuziv rivojlanish" strategiyasining uzviy qismiga aylandi. Bugungi kunda dunyoning yetakchi davlatlari nogironlikni insonning aybi emas, balki jamiyatning ushbu shaxs ehtiyojlariga moslashmaganligi sifatida qabul qilmoqda.

Bugungi kunda nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatga to'laqonli integratsiyasi nafaqat ijtimoiy adolat tamoyilining talabi, balkim har bir davlatning barqaror rivojlanishining muhim ko'rsatkichidir. BMT maqsadlarida barqaror rivojlanishning 2030-yilgacha bo'lgan dasturida "hech kimni orqada qoldirmaslik" tamoyili asosiy o'rinni egallaydi ya'ni nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish hamda ularning jamiyat hayotida faol ishtirokini ta'minlashni talab qiladi. BMTning "Nogironlik huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi" xalqaro hamjamiyat tomonidan 2006-yil 13-dekabrda qabul qilingan. BMT Bosh Assambleyasining 61/106-rezolyutsiyasi bilan tasdiqlangan va u 2008-yil 3-maydan kuchga kirgan. Ushbu hujjat nogironlikka nisbatan dunyoqarashni butunlay o'zgartirdi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, ilgari nogironligi bor shaxslar "rahmdillik va xayriya ob'ekti" deb qaralgan bo'lsa, Konvensiya ularni "huquq sub'ektlari" (ya'ni o'z hayotini o'zi belgilaydigan teng huquqli insonlar) deb e'lon qildi.



Konvensiya 3-moddasida belgilangan quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Inson qadr-qimmatini hurmat qilish va shaxsiy mustaqillik.
- Kamsitmaslik (Diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik).
- Jamiyat hayotiga to'liq jalb etilish va integratsiya.
- Insoniy xilma-xillikni hurmat qilish (Nogironlik — insoniyatning bir qismi).
- Imkoniyatlar tengligi.
- Mundarija va muhitning ochiqligi (Accessibility/To'siqsiz muhit).
- Erkaklar va ayollarning tengligi.
- Nogironligi bo'lgan bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatlarini hurmat qilish.

Konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlar quyidagilarni amalga oshirishga majbur:

❖ Oqilona moslashtirish (Reasonable Accommodation): Nogironligi bor shaxsning o'z huquqlaridan foydalanishi uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlarni (masalan, ish joyida maxsus texnologiya, binoda pandus) yaratish.

❖ Infrastruktura: Transport, axborot va aloqa vositalari hamma uchun ochiq bo'lishini ta'minlash.

❖ Mustaqil hayot: Ularning qayerda va kim bilan yashashni tanlash huquqini ta'minlash (internatlardan voz kechish va jamiyat ichida yashashga sharoit yaratish).

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Xalqaro tajribada integratsiyaning eng birinchi va muhim bosqichi - bu "Universal dizay" tamoyilidir. G'arbiy Yevropa va Skandinaviya davlatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, binolar, transport tizimi va axborot texnologiyalari hamma uchun birdek qulay bo'lishi shart. Masalan, Shvetsiyada "to'siqsiz shahar" konsepsiyasi shunchaki pandus o'rnatish emas, balki butun boshli shahar infrastrukturasini harakatlanishi cheklangan insonlarning ehtiyojlariga 100 foiz moslashtirishni anglatadi. Bu esa nogironligi bor shaxsning bironing yordamisiz mustaqil harakatlanishiga va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishiga imkon beradi.

"Nogironlik sotsiologiyasi" atamasini ilk bor ishlatgan olim Buyuk Britaniyalik Mike Oliver hisoblaniladi. U "Ijtimoiy model" nazariyasining asoschisi. Oliver 1990-yilda "The Politics of Disablement: A Sociological Approach" asarini nashr etdi. Bu asar nogironlik faqatgina shaxsiy muammo emas, balki iqtisodiy, siyosiy va ideologik kuchlar tomonidan shakllantirilgan institutsional muammo sifatida ko'rib chiqqan. Oliver Birlashgan Qirollikdagi UPIAS faoliyatchilari va Vic Finkelstein bilan hamkorlik qilgan. Ular "nogironlik" va "zararlanish" tushunchalarini ajratib ko'rsatishdi va UPIAS bu tushunchalarga "Zararlanish — tananing bir qismi yoki butunlay yo'qligi yoki tananing bir qismi, organizm yoki mexanizmining nuqsonli ishlashi; nogironlik esa zamonaviy ijtimoiy tashkilot tomonidan jismoniy zararlanishga ega bo'lgan odamlarni hisobga olmay yoki oz hisobga olib, ularni ijtimoiy faoliyatlar asosiy oqimidan chetlab qo'yish natijasida yuzaga keladigan noqulaylik yoki faoliyatni cheklashdir"- deya ta'rif berdi. Oliver "nogironlikning sababi shaxsning o'zidagi patologiya emas, balkim jamiyatdagi to'siqlar va muhitning moslanmaganligidir"-



degan asosiy g'oyadan iborat bo'lgan va uning nazariyasi keyinchalik butun dunyo bo'ylab nogironlik huquqlari harakatiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan jamiyatning ba'zi bir shaxslari tomonidan turli xil "stigma" lar qo'llashadi va bu ularning jamiyatda o'z funksiyalarini bajarishga cheklovlar yaratadi.

Amerikalik Erving Goffman "Stigma" tushunchasining asoschisi bo'lib, u 1963-yilda nashr etilgan "Stigma: Notes on the Management of Spoiled Identity" asarida nogironlikni ijtimoiy stigma sifatida tahlil qilgan. U stigma atamasini ijtimoiy yomonlik belgisi sifatida ta'rifladi va uch turga: jismoniy stigmalar - ko'rinadigan nogironliklar, xarakter stigmalar - ruhiy kasalliklar va guruh mansubligi - etnik kelib chiqishga ajratdi. Goffmanning "Asylums" asari ham nogironlarning institutsionalizatsiyasi sharoitlarini tahlil qilgan. Biroq, u stigmani shaxsiy o'zaro ta'sirlar darajasida ko'rib chiqib, ijtimoiy tuzilmaviy kamsitishni hisobga olmagan. Shu sababli, keyingi tadqiqotchilar Goffmanning uslubini "metodologik individualizm" deb tanqid qilishdi.

Shuningdek, Irving Kenneth Zola AQSh Nogironlik sotsiologiyasining "asoschisi" deb tan olingan olim. Zola Brandeis universitetida 31 yil davomida tibbiy sotsiologiya professori bo'lib ishlagan. U o'zi ham jismoniy nogironlikka ega bo'lib, bu uning ilmiy faoliyatiga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Zola 1982-yilda "Missing Pieces: A Chronicle of Living with a Disability" avtobiografik asarini nashr etdi. Bu asar nogironlik bilan yashash tajribasi va uning ijtimoiy kontekstini tahlil qilgan birinchi muhim ilmiy ishlaridan biri bo'ldi. U sog'liq, yoshlik va go'zallikka bo'lgan ilg'or fikrlashning nogiron shaxslarni qanday qilib "yaroqsiz" va "buzilgan" deb baholashiga olib kelishini ko'rsatib berdi. Zola Disability Studies Quarterly jurnaliga asos solgan va Society for Disability Studies jamiyatining tashkil etilishiga yordam bergan. Uning so'zlaridan biri: "Sog'liq, yoshlik va go'zallikka bo'lgan ilg'or fikrlash, yaroqsiz yoki buzilgan deb ko'riladigan odamlarni qadrsizlantiradi, bu esa ularni insoniy tajribalar doirasidan ajratib qo'yadi" - degan Irving K. Zola.

Vic Finkelstein ijtimoiy modelning ilk nazariyotchilaridan biri. Finkelstein klinik psixolog bo'lib, o'zi ham nogironlikka ega edi. U UPIAS asoschilaridan biri bo'lib, tarixiy-materialistik yondashuv asosida nogironlikning ijtimoiy yaratilishini tahlil qilgan. U tadqiqotlarida Britaniyada sanoat davridan oldingi, sanoat davri va zamonaviy davrlarda nogironlarning ijtimoiy holati o'zgarishi tahlil qilingan. Finkelsteinning asosiy xulosasi shundan iboratki, feodal davrda agrar va uyda ishlab chiqarish nogironlarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotda ishtirok etishiga to'siq qo'ymagan, lekin sanoatlashuv davrida standart mehnat sharoitlari ularni "ishsizlar" qatoriga qo'shgan.

Len Barton va Sally Tomlinson Nogironlik sotsiologiyasi va inklyuziv ta'lim sohasidagi yetakchi tadqiqotchilar. Ular nogironlikni individualistik emas, balki ijtimoiy va materialistik jihatdan tahlil qilish zarurligini ta'kidlagan. Barton va Tomlinson inklyuziv ta'lim siyosatini ishlab chiqishda muhim rol o'ynagan va nogiron

bolalarning ta'lim tizimidan chetlashtirilishi muammosini ijtimoiy tuzilma nuqtai nazaridan tahlil qilgan.

Yana bir nogironlik sotsiologiyasi yetakchilaridan biri Colin Barnes Nogironlik sotsiologiyasining yetakchi vakili. U "Disability: A Sociological Phenomenon Ignored by Sociologists" asarida nogironlikni sotsiologiya fani tomonidan uzoq vaqt e'tibordan chetda qoldirilgani haqida yozgan. Barnes ijtimoiy konstruksionist va ijtimoiy yaratuvchi yondashuvlarni ajratib ko'rsatgan. Uning ta'kidlashicha, ijtimoiy konstruksionist yondashuv nogironlik muammosini nogiron bo'lmagan odamlarning ongida joylashgan deb o'ylaydi, ijtimoiy yaratuvchi yondashuv esa nogironlikni zamonaviy jamiyatning institutsional amaliyotlarining natijasi sifatida ko'rib chiqadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, garchi bu sotsiologik tadqiqot bo'lmasa-da, WHO 2001-yilda ishlab chiqilgan Xalqaro funksiyalash, nogironlik va sog'liqni tasniflash modeli nogironlikni tushunishda muhim burilish nuqtasi bo'ldi. Bu model tibbiy va ijtimoiy modellarni birlashtirgan biopsixosotsial yondashuvni taklif qildi. ICF modelida nogironlik shaxsning o'zidagi muammo emas, balki shaxs, muhit omillari va shaxsiy omillar o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sir sifatida ko'rib chiqiladi. Model quyidagi komponentlarni ajratib ko'rsatadi:

- Tananing funksiyalari va tuzilmasi
- Faoliyatlar va ishtirok etish
- Atrof-muhit omillari
- Shaxsiy omillar

"Nogironlik ko'p o'lchamli va o'zaro ta'sir qiluvchi tushuncha. uning barcha komponentlari muhim va har qanday biri boshqasi bilan o'zaro ta'sir qilishi mumkin" — WHO ICF modeli.

Bugungi kunda yurtimizda inklyuziv ta'lim va nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash masalalari kompleks ravishda tadqiq etilmoqda. Xususan, ko'plab ilmiy manbalarda maxsus ehtiyojli bolalarni ijtimoiy muhitga integratsiya qilish va ularning intellektual salohiyatini oshirish masalalariga alohida urg'u berilgan. Masalan, tadqiqotchi olimlar T.Ahmadaliyev va M.Soliyevlar o'z izlanishlarida ushbu toifadagi bolalarga hunar o'rgatishning pedagogik mexanizmlarini yoritib bergan holda, har bir bola bilan ishlashda individual-psixologik yondashuvni qo'llash zarurligini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Xalqaro tajriba bo'yicha ilmiy ishlar: To'xtasinova M.I. tomonidan "Nogironlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishning innovatsion yo'nalishlari" mavzusida yozilgan ilmiy maqolada zamonaviy texnologiyalar nogironlarning hayot sifatini oshirishdagi roli tahlil qilingan. Muallif ta'kidlaganidek: "Nogironlik nafaqat jismoniy cheklovlarni, balki ijtimoiy muhitga moslashish muammolarini ham o'z ichiga oladi".

Latipova Nodira Mukhtorjonovna Latipova O'zbekiston Milliy Universiteti
Sotsiologiya fanlari doktori (DSc), professor, "Ijtimoiy ish" kafedrasi mudiri.
Latipova O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ijtimoiy ish sohasidagi

yetakchi ilmiy markazni boshqarib kelmoqda. Uning 2020-yilda himoya qilgan "O'zbekistonda bolalar va oilalarni ijtimoiy himoya qilish" nomli doktorlik dissertatsiyasi (DSc) nogiron bolalarning ijtimoiy himoyasi muammolarini qamrab olgan.

Latipova rahbarligidagi kafedra:

❖ OT-P1-100: "Nogironligi bo'lgan bolalarning sotsiokulturna moslashuvi tizimini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari".

❖ A-OT-2021-64: "Oila uchun sifatli va tez ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish mobil ilovasini ishlab chiqish"

❖ Xalqaro loyiha UNICEF bilan hamkorlikda: "O'zbekistonda ijtimoiy ish sohasidagi ta'lim tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish" kabi ishlarni amalga oshirgan.

Abdullo Abduhamidovich Abduxalilov — O'zbekiston Milliy Universiteti

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Abduxalilov O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy himoyasi va integratsiyasi sohasidagi yetakchi yosh tadqiqotchilardan biri. Uning "Nogironligi bo'lgan shaxslarning hayot sifatini oshirish ijtimoiy siyosatining strategik yo'nalishi sifatida" mavzusidagi PhD dissertatsiyasi bu sohadagi muhim ilmiy ishlar qatoriga kiradi. Shuningdek, u 2024-yilda "Nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ijtimoiy ish texnologiyalari" o'quv-uslubiy majmuasining tuzuvchisi bo'lgan. 2025-yilda nashr etilgan ilmiy maqolasida Abduxalilov Yangi O'zbekiston uchun "Inklyuziv ishtirok etish sari" konsepsiyasini qabul qilish zarurligini ta'kidlagan.

Dilmurad Yusupov - Rivojlanish tadqiqotlari bo'yicha PhD (Sussex Universiteti, Angliya), hozirda Tokio Kolleji postdoktorantura tadqiqotchisi. Yusupov O'zbekistonda nogironlik huquqlari harakatining yetakchi faol va tadqiqotchisi. U 2023-yilda himoya qilgan "Postsovet O'zbekistonda nogironlik va fuqarolik: nogironlar tashkilotlari, mahalla va islom roli" nomli doktorlik dissertatsiyasi (PhD) bu sohadagi birinchi katta ilmiy tadqiqotlardan biri.

Uning asosiy hissasi:

- 2016-yilda "Sharoit Plus" nodavlat notijorat tashkilotini asos solgan
- IshPlus.uz maxsus rekrutment portalini ishga tushirgan
- UNICEF, Jahon banki, BMTDP, UNFPA va BMT inson huquqlari bo'yicha mintaqaviy ofis kabi xalqaro tashkilotlar uchun maslahatchi bo'lib ishlagan
- Journal of International Development va Journal of Development Studies jurnallarida ilmiy maqolalar chop etgan.

Ilmiy izlanishlar tahlili nogironlik tushunchasining evolyutsion rivojlanishini, ya'ni tibbiy yondashuvdan ijtimoiy va inklyuziv yondashuvga o'tilganini tasdiqlaydi. Ijtimoiy model doirasida nogironlikning shakllanishida jamiyatdagi mavjud stereotiplar va infratuzilmaviy cheklolar birlamchi sabab sifatida talqin etilmoqda. Hozirgi kunda nogironlikka ko'p o'lchovli (biologik-psixologik-ijtimoiy) jarayon sifatida qaralishi,

qo'llab-quvvatlash tizimini nafaqat reabilitatsiya qilish, balki jamiyatning barcha jabhalariga to'liq integratsiya qilish orqali tizimli tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimi shunchaki ijtimoiy yordam ko'rsatish emas, balki inson huquqlarini ta'minlash va jamiyatning barcha jabhalarida teng imkoniyatlarni yaratish strategiyasidir. Global miqyosda integratsiya jarayoni — bu inson qadr-qimmatini ustuvorligi, ijtimoiy adolat va barcha uchun ochiq bo'lgan to'siqsiz muhitni barpo etish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishishning muhim omili sifatida talqin qilinadi. Bunday kompleks yondashuv nogironligi bor shaxslarning passiv yordam oluvchidan jamiyatning faol a'zosiga aylanishiga xizmat qiladi.

Xalqaro tajribalardan biri Germaniya tajribasini misol qilsak, uning eng kuchli tomoni — bu mehnat bozoriga integratsiya qilishdir. Qonunchilikka ko'ra, 20 tadan ortiq ish o'rniga ega bo'lgan har qanday davlat va xususiy korxona xodimlarining kamida 5 foizini nogironligi bo'lgan shaxslar tashkil etishi shart. Agar korxona bu kvotani bajarmasa, har bir "yetishmayotgan" xodim uchun davlatga maxsus jarima (Ausgleichsabgabe) to'laydi. Bu mablag'lar yig'ilib, nogironligi bor shaxslar uchun yangi ish o'rinlari yaratishga va ularni texnik jihozlashga qayta yo'naltiriladi. Bundan tashqari, Germaniyada ish beruvchi nogironligi bor xodim uchun ish joyini uning ehtiyojiga qarab jihozlashga majbur. Masalan, ko'zi ojiz dasturchi uchun maxsus brayl displeyi yoki harakati cheklangan xodim uchun maxsus boshqariladigan stol-stullar davlat va sug'urta jamg'armalari hisobidan qoplab beriladi. Bu shaxsni "boqimanda" emas, balki "yuqori malakali soliq to'lovchi"ga aylantiradi. Germaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, integratsiya - bu shunchaki xayriya emas, balki samarali iqtisodiy sarmoyadir. Insonni ish bilan ta'minlash orqali davlat uni uzoq muddatli ijtimoiy nafaqa yukidan xalos qiladi.

Germaniya dunyoda birinchilardan bo'lib nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini tizimli ravishda qonun bilan mustahkamlagan davlatlardan biri. Germaniya BMT Konvensiyasini 2009-yil 24-fevralda ratifikatsiya qilgan va u 2009-yil 26-martdan kuchga kirgan. Konvensiyani ratifikatsiya qilishdan oldin 1994-yilda Germaniya Konstitutsiyasining 3-moddasiga muhim qo'shimcha kiritilgan: "Hech kim o'zining nogironligi sababli kamsitilishi mumkin emas" va 2001-yilda Germaniyada "Nogironlarni reabilitatsiya qilish va jamiyatga integratsiya qilish to'g'risida"gi Ijtimoiy kodeksning 9-kitobi (SGB IX) qabul qilingan. Bu hujjat yuqorida aytilgan 5% lik kvota tizimini qonuniy mustahkamlab bergan. Shuningdek, 2021-yil 7-iyunda O'zbekiston ham rasman Konvensiyani ratifikatsiya qildi. Ya'ni mamlakatimiz o'z qonunchiligini ushbu xalqaro standartlarga to'liq moslashtirish majburiyatini oldi. 2020-yilda qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'zbekiston Qonuni aynan shu Konvensiya talablari asosida ishlab chiqilgan. O'zbekiston tomonidan BMT Konvensiyasining ratifikatsiya qilinishi - nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimidan ijtimoiy integratsiya tizimiga o'tishning huquqiy kafolati bo'lib xizmat qilishga yordam beradi.



CONVENTION
ON THE RIGHTS
OF PERSONS
WITH DISABILITIES



Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyatda nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab – quvvatlash tizimini takomillashtirish faqatgina ularning hayot sifatini oshirishi, balki davlatning iqtisodiyoti barqarorlashishiga ham yordam beradi. Rivojlangan davlatlar tajribasida nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatga integratsiyalashuvi nafaqat axloqiy burch, balki iqtisodiy rivojlanishning muhim resursi deb qaraladi. Ikkyuzivlik tamoyillariga asoslangan qo'llab – quvvatlash tizimi jamiyatda inson kapitalidan to'liq foydalanish imkonini beradi. Xalqaro modellarga ko'ra, tizimli integratsiya – ijtimoiy himoya, inklyuziv ta'lim va moslashuvchan mehnat bozorining o'zaro uyg'unligidir. Bu esa ijtimoiy adolatni ta'minlash bilan birga, davlatning uzoq muddatli barqaror o'sishini kafolatlovchi mexanizm bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Xalqaro hujjatlar va konvensiyalar:

1. BMT Bosh Assambleyasi. (2006). Nogironlik huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi. Nyu-York: BMT Nashriyoti.
2. BMT. (2015). 2030-yilgacha barqaror rivojlanish dasturi. Nyu-York: BMT Nashriyoti.

Ilmiy maqolalar va monografiyalar:

3. To'xtasinova, M.I. (2025). Nogironlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishning innovatsion yo'nalishlari. New Renaissance: International Scientific and Practical Conference, 2(4), 137-139. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15204139>
4. Hakimova, I. (2025). Nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy hayotga integratsiyasi muhim omildir. Taraqqiyot strategiyasi markazi. Olingan: https://uzbekembassy.com.my/uzb/news_press/nogironligi_bolgan_shaxslarning_ijtimoiy_hayotga_integratsiyasi_muhim_omildir.html

Xalqaro tashkilotlar hisobotlari:

5. UNDP. (2024). Nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda kompleks yondashuv: O'zbekistonda integratsiyalashgan keysmenejment (IKM) modelini joriy etish. Toshkent: UNDP.

Dissertatsiyalar va magistrlik ishlar:

6. ValuAble Network. (2021). Integration of persons with intellectual disabilities in the labor market: International project experience. HNEE Master Thesis.

7. EJIE. (2024). Integration of a Disability Lens as Prerequisite for Inclusive Education. European Journal of Inclusive Education.

Qonunchilik va davlat hujjatlari:

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 13-dekabrdagi videoselektor yig'ilishidagi nutqi. Ijtimoiy himoya sohasidagi islohotlar.

9. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va ijtimoiy himoya vazirligi. (2023). Nogironlarni bandlik bilan ta'minlash bo'yicha davlat dasturi. Toshkent.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazlarida ishga qabul qilingan ijtimoiy soha xodimlarining vazifalari to'g'risida"gi qarori (2023).